


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

1/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

1/2025

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Астанова Г.А.	“Минг бир кеча” ҳикоятларида ҳинд, эрон руҳияти ифодаси	3
Babayev M.T.	Mavlono Jaloliddin Rumi (Balxiy)ning “Masnaviyi ma’naviy” asaridagi masallarda ilon obrazi	8
Ganiyeva O.X.	J.Styuartning “Another april” hikoyasidagi XX asr AQSh realistik hikoyachiligi xususiyatlari tasviri	14
Karimova D.H., Narziyeva D.R.	Aka-uka Grimm ertaklarining tarjima variantlari xususida (“Bir xumcha shovla” ertagi tarjimasi misolida)	18
Ubaydullayeva R.A.	“Ro‘yo yoxud g‘ulistonga safar” romanida ramziylik va uning ifodalanishi	23
Fayziyeva K.A.	“Muhammad hayoti” romanida badiiylik tasviri	29
Bekova N.J., Faxriyeva D.T.	Chingiz Aytmatov asarlarida ayol qismati tahlili (“Alvido, gulsari”, “Birinchi muallim” qissalari asosida)	33
Xudayberdiyeva M.A.	Fitratning adabiy tur va janrlarga munosabati	37
Qodirova N.S.	Adabiy tanqidchilikda davr uslubi masalasi (jadid tanqidchiligi misolida)	41
Dusanova M.X.	Social And Cultural Context In 20th Century English Literature	48
Naimova A.M.	Mifopeya janr xususiyatlari hamda uning badiiy nasrda formatlashuvi	52
Zayniyeva Y.F.	“Boburnoma” dagi izofiy birikmali hayvonot va nabobot nomlarining inglizcha tarjimalari tahlili	57
Gadoeva M.I., Rahmonova J.M.	Sharq va g‘arb madaniyatlarida “yaxshilik” tushunchasi	62
Sa’dullayeva Sh.A.	Rashod Nuri Guntekin romanlarida o‘qituvchilar obrazi	67
Sabirova G.B.	Ota timsolining oilaviy va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyati	71
Nazarova G.P., Sirojeva N.S.	Amerika immigrant janri tarixi	77
Usmonova N.S.	Tez aytish turlari (fransuz tez aytishlari misolida)	82
Shukurova S.O.	An examination of sociological and psychological perspectives on suicide through the works of Émile Durkheim and Zygmunt Bauman	88
Kilicheva M.R.	XIX asr ingliz she’riyatida sharq va islom madaniyati talqini	93
Kodirova S.A.	Ayrim maqollar evolyutsiyasida “Zarbulmasal” maqollarining o‘rni va ahamiyati	99
Рашидова Ф.Р.	Художественный психологизм в творчестве женщин-писательниц викторианской литературы	103
Ахмедова К.А.	Ключевые особенности детских игр узбекского народа	108
Рахимова Н.К.	Баҳоуддин Нақшбанд “Авроди шариф”идаги тасаввуф терминлари таҳлили	112
Нармуратов И.,	Максим Горький – великий представитель	116

AYRIM MAQOLLAR EVOLYUTSIYASIDA “ZARBULMASAL” MAQOLLARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Kodirova Saodat Abduraximovna,
Navoiy davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d (PhD)
s.a.qodirova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Zarbulmasal”dagi maqollar bugungi kunda qo'llanayotgan maqollar evolyutsiyasiga ham xizmat qilishi, muallif tomonidan shakliy o'zgarish kiritilgan maqollar hamda o'zgartirishsiz – qo'shtirnoqqa olingan holda qo'llangan xalq maqollari tahlili ochib berilgan. Asarning yozilishidan kelib chiqadigan maqsad ko'p hollarda maqollarni aynan qo'llash yondashuvini qo'llab-quvvatlash, ayrim o'rinlarda hali maqol sifatida shakllanmagan, ammo xalq orasida uning tajribasi, donoligi namunasi sifatida turli ko'rinishda ishlatilib kelinayotgan birliklar muallifning fikri sifatida keltirilgan. Shunday birliklar bugungi kundagi qator maqollarning shakllanishiga asos ekanligi o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: asar, maqol, syujet, mazmun, fikr, xarakter, hikoya, dialog.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE PROVERBS OF "ZARBULMASAL" IN THE EVOLUTION OF CERTAIN PROVERBS

Abstract. This article reveals that the proverbs in “Zarbulmasal” serve the evolution of proverbs used today, the analysis of proverbs changed by the author, and folk proverbs used without change - in quotation marks. If the purpose of writing the work supports in many cases the approach of using proverbs, then in some places there are units that have not yet been formed as proverbs, but are used by the people in various forms as examples of their experience and wisdom, and are presented as the opinion of the author. Such units today are the basis for the formation of a number of proverbs.

Keywords: work(written work), proverb, plot(subject), content(meaning), idea, character(manner), hero, moral story, dialogue

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПОСЛОВИКОВ «БУЛЬБУЛЬМАСАЛ» В ЭВОЛЮЦИИ НЕКОТОРЫХ ПОВЕЧНИКОВ

Аннотация. В данной статье выявлено, что пословицы в «Зарбулмасале» служат эволюции пословиц, используемых сегодня, анализу пословиц, измененных автором, и народных пословиц, употребляемых без изменения – в кавычках. Если цель написания работы поддерживает во многих случаях подход использования пословиц, то кое-где встречаются единицы, еще не сформировавшиеся как пословицы, но употребляющиеся в народе в различных формах как примеры его опыта и мудрости, представлены как мнение автора. Такие единицы сегодня являются основой формирования ряда пословиц.

Ключевые слова: произведение, пословица, сюжет, содержание, мысль, характер, характер, рассказ, диалог.

Kirish. Ta'kidlash joizki, hadislar maqollarning paydo bo'lishi va taraqqiyotida ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Aniqrog'i, hadislar jonli so'zlashuv jarayonida qayta ishlanib, yanada ixchamlashib, obrazlilik kasb etgan holda xilma-xil maqollar shaklida faolroq qo'llana boshlagan. Masalan, Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilinadigan “Alloh Taoloning rozi bo'lishi otaning rozi bo'lishiga va uning g'azabi ham otaning g'azabiga bog'liqdir” hadisi mavjud. U xalq ijodida “Ota rozi-xudo rozi”, “Ota oldida kek urma, odobingga chek urma”, “Ota oldidan o'tma, odob oldidan ketma”, “Ota o'g'li bo'lsang – ota nomini baland tut” singari o'nlab maqollarning yuzaga kelishiga turtki bo'lgan.

Xalqimizda “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik”. Qur'oni Karimda Baqara surasining 172-oyatida “Ey imyon keltirganlar! Allohgagina ibodat qiluvchi bo'lsangiz, sizlarga Biz rizq qilib bergan pokiza narsalardan yeb, Unga shukr qilingiz” deb yozilgan. Demak, mehnatimiz halollik asosida bo'lishi, pokizalik mezonida o'lchanishi kerak.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. “Zarbulmasal”ning qo'lyozma va nashr nusxalari va asardagi maqollarning tadrijiy takomilini ilmiy tadqiq etishdan iborat. Tadqiqot mavzusini yoritishda analitik, qiyosiy-tipologik, tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. B.Jo'rayeva o'zbek xalq maqollarini intralingvistik birliklar yordamida shakllangan 6 ta guruhga ajratgan:

- a) iboralar asosida shakllangan maqollar: sanamay sakkiz demaslik – sanamay sakkiz dema;
- b) folklor janrlari asosida shakllangan maqollar;
- d) e'tiqodiy tushunchalar asosida shakllangan maqollar;
- f) xalq umidlari asosida shakllangan maqollar;
- s) xalq o'yinlari asosida shakllangan maqollar;
- e) hadislar asosida shakllangan maqollar [4; b. 17-20].

Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda Payg'ambarimiz (s.a.v.) shunday deganlar: "Kimki tilanchilik qilishdan saqlanish, oilasini boqish va qo'ni-qo'shnilariga muruvvat qilish maqsadida halol yo'l bilan rizq topish bilan mashg'ul bo'lsa, qiyomat kumida u Alloh taolaga yuzi to'lin oydek yorug' bo'lgan holda boradi".

Aytish mumkinki, "Zarbulmasal"dagi mehnatsevarlik haqida maqollarning shakllanishi Qur'oni karim va hadisi sharifga borib taqaladi.

Maqollar evolyutsiyasida yozma adabiyotning o'rni haqidagi tadqiqotida Y.Rahmatov shunday yozadi: "Maqollar – inson tafakkurini asrdan asrga olib o'tuvchi mukammal nodir axborot vositasi. Shunday bo'lsa-da, ular ham zamon va makon ta'sirida evolyutsion tadrijni boshdan kechiradi. Maqollar bir kunda yoki bir necha oyda shakllanib qolmaydi. Ommaning ibratli so'zi maqol darajasiga yetishi uchun kattagina davrni o'tamog'i, xalq tafakkurida yetilmog'i, ham shaklan, ham ma'nan takomillashmog'i lozim. Xalq maqollari davrlar o'tishi bilan shakli va mazmunini qisman o'zgartirib, yangi davr til xususiyatiga moslashadi va takomillasha boradi. Xalq maqollarining shakllangan davri noaniq, biroq ular ijtimoiy-ruhiy hodisa: til, tafakkurning paydo bo'lishi bilan teppa-tengdir. Negaki inson olam va borliq haqida fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lishi bilanoq, o'z hayotiy tajribasi bilan o'rtoqlashgan"[2; b. 137-138] Bundan kelib chiqadiki, yozma adabiyot ayrim maqollar evolyutsiyasida muhim rol o'ynaydi.

"Folklorshunoslarning sa'y-harakati bilan o'zbek xalq maqollarining to'plangan miqdori o'ttiz mingdan ortiq. Ularning har biri o'z tarixi, o'z tadriji va takomiliga ega. Og'zaki tarzda yaratilgan hikmat durdonalari – maqollarning tarixiy ildizini aniqlashda esa bizga yozma adabiyot muhim manba sanaladi. Og'zaki ijod namunalarining turli davrlarda turli sabablar bilan yozma asarlar tarkibiga kirgani barchaga ma'lum. Ayniqsa, xalq tafakkurining ixcham ifodasi sanalgan maqollar mumtoz adabiyot vakillarini doimiy ravishda ohanrabodek o'ziga jalb qilib kelgan"[4]. Mutaxassislarning ta'kidlaganidek, har bir maqolning kelib chiqish tarixi va tadriji (evolyutsiyasi) mavjud. Bu masala qisman o'zbek xalq maqollari izohi orasida ham uchraydi. Ma'lum bir maqolning kelib chiqishida qaysi afsona yoki rivoyat asos bo'lgan, yoki qaysi yozma yodgorlikda shu maqolning dastlabki ko'rinishi mavjud bo'lganligi maqollarning izohida yozilganligiga guvoh bo'lamiz.

Y.Rahmatov to'g'ri ta'kidlaganidek, "... turkiy xalqlarning eng qadimgi yozma yodgorliklari V-VIII asrga mansub toshbitiklar sanaladi. Demak, biz xalq maqollarining dastlabki namunalarini izlashda shu yodgorliklar matniga tayanamiz. Biroq bu manbalarda qo'llangan maqollar individual ijodkorning badiiy tafakkurida qayta ishlangan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, toshbitiklarda qo'llangan ibratomuz fikrlarning o'sha davrda maqol sifatida qo'llanganiga ham aniq isbot mavjud emas. Shu bois toshbitiklardagi didaktik xarakterga ega ixcham fikrlarni maqollarning dastlabki namunasi sifatida qabul qilamiz"[1; b. 139] Y.Rahmatovning fikrini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Chunki tadqiqotchining ushbu fikrining tasdig'i boshqa monografik ishlarda ham kuzatiladi.

Iqbol Mirzo "Devonu lug'otit turk"ni monografik planda tadqiq qilar ekan [5], undagi ayrim maqollarning bugun amalda bo'lgan shaklini ko'rsatadi. Buning uchun fikrini quyidagicha dalillaydi: "Mahmud Koshg'ariy devonidan keyin adabiyotimiz tarixida, ayniqsa, badiiy adabiyotlarda ko'plab maqollardan foydalanilgan. Xususan, Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig», Adib Ahmad Yugnakiy «Hibatul-haqoyiq» asarlarida o'rni bilan maqollar singdirilgan baytlarni uchratamiz. Bu hol o'rta asr ijodkorlari asarlarida ham ko'p uchraydi.

Professor Q.Sodiqov esa qadimgi turkiy maqollarning paydo bo'lishi to'g'risida quyidagilarni aytib o'tadi: «Qadimgi turkiy maqollarning yaratilgan davri aniq emas. Mashhur allomalarimiz ularni ming yil burun qog'ozga tushirgan bo'lsa-da, ushbu maqollar asrlar qa'riga ildiz otgan. Ularning ba'zilarida yaratilgan davrining izlarini ham sezamiz. Jumladan, «Savobli ishlar qiluvchi kishi burxon bilan barobar, Diyonatsiz kishi mis tanga bilan barobar» maqoli buddizm muhitida yaratilgani tayin. Maqolda kelgan *burxon* – buddizm dinida buddadir. Ushbu maqolda «xayrli ishlar qiluvchi inson budda bilan barobardir, diyonatsiz kishining esa qadri yo'qdir», degan ma'no mujassamlashgan. Yoki «Fazilatli kishi javohirga tengdir, fazilatsiz kishi etik ichidagi patakka tengdir» maqoli ham ayni muhitning hosili. Buning sababi, buddizm uchlik: budda, uning ta'limoti va jamoa muqaddas sanalgan» [1; b. 78].

Iqbol Mirzo o'z tadqiq obyektida maqollarning evolyutsiyasini quyidagicha izohlaydi: «Devonu lug'atit turk» asarida keltirilgan maqollardan katta bir qismining bugungi kunda ishlatiladigan ekvivalentlari, ya'ni

muqobil variantlari bor. Masalan, *Alp yağida, alçaq čoğida*. – «Botir yov bilan to‘qnashganda (olishganda), yuvosh tirishishda sinaladi» maqolini olsak, u hozirgi o‘zbek tilida «Botir yovda bilinar, So‘zchi – dovda» shaklida ishlatiladi» [6]. Tadqiqotchining bu kabi tahlilidan xulosa qilish mumkinki, hozirgi kunda qo‘llanib kelinayotgan xalq maqollari dastlab Koshg‘ariy ijodida muallifning o‘z fikri sifatida ishlatilgan. Tabiiyki, bu dono xulosani yozuvchi xalq og‘zidan o‘rgangan hamda keyinchalik ushbu hikmat og‘izdan og‘izga o‘tib maqol sifatida shakllangan.

Maqollarning evolyutsiyasi xususida fikr yuritar ekan, tadqiqotchi o‘zgarishlarning turini ajratib ko‘rsatadi, Koshg‘ariy qo‘llagan shakl va hozirgi qo‘llanishda qanday sintaktik o‘zgarishlar borligini quyidagicha ko‘rsatadi: “*Kej ton orramas, keñäšlig bilig artamas*. – «Keng to‘n to‘zimaydi, kengashlik ish buzilmaydi». Bu maqol ishlarni bajarishda boshqalar bilan kengashish, o‘zboshimchalik qilmaslikka undab aytiladi (DLT, 444). Mazkur maqolda ikki hodisa bir-biriga solishtirilmoqda. Ma‘no ham shundan kelib chiqadi. Ushbu maqolning hozirgi kundagi ko‘rinishi bir sostavli gap shaklida qo‘llanadi: *Kengashli to‘y tarqamas*. Maqolning ikkinchi «Keng to‘n to‘zimaydi» qismi bugunga kelib, nazarimizda o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Shuning uchun u hozir tushib qolgan. Shu bilan birga, «kengashli ish» o‘rniga, «kengashli to‘y» iborasi qo‘llanmoqda. «Ish»ning «to‘y»ga o‘zgargani ham bejizga emas, inson hayoti davomida «to‘y» muhim o‘rin egallagani bois, uni chiroyli, go‘zal qilib o‘tkazish uni kengashgan holda, maslahat bilan amalga oshirish nazarda tutiladi» [1; b. 16].

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, maqollar evolyutsiyasida fonetik, leksik, morfologik, sintaktik transformatsiyalar kuzatilishi mumkin. Quyida bugungi kunda qo‘llanilayotgan ayrim maqollarning evolyutsiyasida “Zarbulmasal” asaridagi fikrlarning o‘rni haqida fikr yuritamiz.

Shuni ta’kidlash joizki, “Zarbulmasal” maqollarning qo‘llanishi nuqtayi nazaridan boshqa yozma yodgorliklardan farq qiladi. “Devonu lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq” kabi asarlar yoki turli she’riy asarlarda maqollarning uchrashi muallifning xalq maqolini fikrini dalillash uchun keltiradi. “Zarbulmasal” esa maqollarni to‘plash maqsadi bilan yozilgan, ushbu asarda xalq maqollari ajratib ko‘rsatilgan: har bir maqol qo‘shirnoqqa olingan. Bu asarning barcha nusxalariga birdek tegishli. Shu bilan birga mazkur asarda maqol sifatida ta’kidlanmagan fikrlar ham uchraydiki, ular bugungi kunda xalq maqoli sifatida e’tirof etilgan. Quyida shu fikrlardan ayrimini tahlil qilish asosida maqollarning shakllanishida “Zarbulmasal”ning o‘rnini ko‘rsatish mumkin bo‘ladi.

Y.Rahmatov qadimgi yodgorliklarda mavjud bo‘lib, keyinchalik maqolning evolyutsiyasiga xizmat qilgan birliklar xususida shunday yozadi: “Mardlik va jasorat g‘oyasi barcha zamonlar uchun birdek dolzarb bo‘lib kelgan. Ayniqsa, el-yurt ravnaqi va vatan yo‘lidagi fidoyilik qadimgi turk xalqlari uchun alohida g‘urur sanalgan. Shu bois xalq orasida el-u yurt koriga yaraydigan er yigitlarni ulug‘lovchi maqollar juda ko‘p uchraydi. Bunday maqollarning dastlabki namunalari qadimgi yodnomalarda ko‘plab topiladi. Bitiktoshdagi “Erning kalmishi alp” – “Jangchilarning kelgani qahramondir” maqoli davriy evolyutsiyada takomillashib “Er yigitni yov ustida ko‘r”, “Botir yovda bilinar”, “Mard maydonda sinalar”, “Er boshiga ish tushsa, etik bilan suv kechar, ot boshiga ish tushsa suvliq bilan suv ichar” kabi maqollarni yuzaga keltirgan.

Odatda, tarixiy taraqqiyotning biror-bir davrida qo‘llangan maqollar vaqt o‘tishi bilan boshqa shaklga o‘tadi. Bu tilning rivojlanishi, o‘zgarishi, boshqa tillarning ta’siri natijasida sodir bo‘ladi. Y.Rahmatov shundan kelib chiqib maqolning shakliy o‘zgarishini maqol tarkibida bo‘ladigan harf o‘zgarishi; so‘z o‘zgarishi; so‘z tushib qolishi; so‘z qo‘shilishi; gap qurilishining o‘zgarishi kabi o‘zgarishlarni nazarda tutadi.

“Zarbulmasal”dan quyidagi parchani tahlilga tortamiz:

... alqissa, onasi fahmlab aydi: «Ey bolam, ko‘nglungiz er tilar o‘xshar, sabr qiling, ko‘b oshuqmang. «Oshuqqon qiz erga borsa, yorgimas» va «teshuk to‘lchoq yerda qolmas». Anda qiz itobi og‘oz qilib aydi: «Ey ona, siz bizga, sabr-tahammul sari yo‘l ko‘rsatursiz, mani olur yigitga ham otasi ayturki, «fo‘lod pichoq qinsiz qolmas», «bosh eson bo‘lsa, to‘ppi topilur» [1; b. 10].

Y.Rahmatovning maqollar evolyutsiyasi haqidagi fikrini nazarda tutsak, mazkur parchada so‘z o‘zgarishi (leksik) va tovush o‘zgarishiga uchragan birliklar uchraydi. Masalan, “Oshuqqon qiz erga borsa, yorgimas” maqoli bugungi kunda “Oshiqqan qiz erga yolchimas” shaklida uchraydi. Demak, bu maqolda *oshuqqon* so‘zi *oshiqqan* shaklida, *yorgimas* so‘zi *yolchimas* o‘zgargan; *erga borsa* birikmasi esa soddalashgan, qo‘shma gap shaklidagi maqol soddaga aylangan. Asarda keltirilgan *teshuk to‘lchoq yerda qolmas* maqolidagi to‘lchoq so‘zi munchoq so‘ziga o‘zgarib, bugungi kunda mazkur maqol *teshuk munchoq yerda qolmas* shakliga kelgan.

Quyidagi matn tarkibida kelgan *dala-tuzni suv olsa, o‘rdak, qozni to‘shidin* ifodasi bugungi kunda ishlatiladigan “*Dunyoni suv bossa o‘rdakning to‘rig‘igacha kelmaydi*” maqolining evolyutsiyasiga xizmat qilgan. Solishtiring:

Bayt: «Dala-tuzni suv olsa, o‘rdak, qozni to‘shidin,

Quloqsizga so‘z aytsang, qulog‘ini toshidin [1; b. 11].

Boshqa bir misol. *Mundin bexabar o'xsharsanki, «Cho'bnī xor tutsang, ko'zga tushar»*. Maning birla so'zlashguncha borib Boyo'g'li birla so'zlashgil». *Cho'bnī xor tutsang, ko'zga tushar* maqoli shaklan, mazmunan transformatsiyaga uchragan: bugun ishlatiladigan *asragan ko'zga xas tushar* maqolida xasni mensimaslik, kichik deb bilish uning ko'zga zarar yetkazishga olib kelishi ta'kidlanadi. Maqolning hozirgi versiyasida esa asralgan ko'zga urg'u beriladi. Ikkisida ham ma'no bir xil, ammo ma'no taraqqiyoti yuz bergan.

Boshqa bir kontekstni tahlil qilamiz: *Anda Yapaloqbiy aydi: «Bitar ishni keyinga solursan, magar onki mone'ul xayrga o'xsharsan. Sandin suq-husudni idi kelur»*. *Anda Ko'rqush aydi: «Aslo man xayr ishini keyinga solurim yo'q* [1; b. 12]. Bu kontekstda ifodalangan ma'nodan hozirgi kunda qo'llaniladigan "Qolgan ishga qor yog'ar" maqoli shakllangan. *Bitar ishni keyinga solursan, magar onki mone'ul xayrga o'xsharsan* gapi shaklan o'zgarib, mazmunan hozirgi davrda ishlatiladigan maqolga aylangan. *Bitar ish* birikmasi *qolgan ish* shaklini olgan, qo'shma gapning ikkinchi qismi batamom o'zgargan.

Xulosa. "... xalq maqollarining uzoq yashovchanligi va ko'p qo'llanishini e'tiborga olgan holda ularning tadrijiy taraqqiyotini ilmiy jihatdan o'rganish mumkin. Bu esa bir maqolning har bir davr yozma adabiyotida va og'zaki ijodida qay tarzda qo'llangani, xalqning va individual ijodkorning unga munosabati, badiiy va adabiy yodnomalardagi g'oyaviy-badiiy maqsadi bilan bog'liqlikda o'rganish asosida amalga oshiriladi [1; b. 143].

"Zarbulmasal" asari matnini o'rganish asosida shuni aytish mumkinki, muallif tomonidan shakliiy o'zgarish kiritilgan maqollar hamda o'zgartirishsiz – qo'shtirmoqqa olingan holda qo'llangan xalq maqollari uchraydi. Asarning yozilishidan kelib chiqadigan maqsad ko'p hollarda maqollarni aynan qo'llash yondashuvini qo'llab-quvvatlash, ayrim o'rinlarda hali maqol sifatida shakllanmagan, ammo xalq orasida uning tajribasi, donoligi namunasi sifatida turli ko'rinishda ishlatilib kelinayotgan birliklar muallifning fikri sifatida keltirilgan. Shunday birliklar bugungi kundagi qator maqollarning shakllanishiga asos bo'lgan deyish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: филол. фан. доктори диссер. автореферати. – Самарқанд, 2019. – 17-20-б.
2. Раҳматов Й.Ф. Мақол ва унинг ўзбек мумтоз адабиётидаги эволюцияси: Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2023. – 268 б. – 137-138-б.
3. Раҳматов Й.Ф. Мақол ва унинг ўзбек мумтоз адабиётидаги эволюцияси: Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2023. – 268 б. – 139-б.
4. Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари ва унинг наشري ҳақида / Ўзбек халқ мақоллари. I том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 7.
5. Мирзаалиев И. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси («Девону лугатит-турк» материали мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 38 б.
6. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Тошкент. 2006. – Б. 78.
7. Мирзаалиев И. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси («Девону лугатит-турк» материали мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 38 б. – 15-б.
8. Мирзаалиев И. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси («Девону лугатит-турк» материали мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 38 б. – 16-б.
9. Гулханий. Зарбулмасал. – Тошкент, "Ўқитувчи" наشريёти, 1972. – 10-б.
10. Abdurakhimovna K. S. Poetics of Proverbs //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 303-307.
11. Abdurakhimovna K. S. Main Subject way of "Zarbulmasal" //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 286-290.
12. Kodirova S. A. The effectiveness of the comprehensive health-saving model for university students in uzbekistan in the context of digitalization //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 120. – C. 01058.
13. Kodirova S. Idealistic study of proverbs //Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 45-51.